

RIFATILLA QOSIMOV

# AN'ANAVIY CHOLG'U IJROCHILIGI



M<sup>43</sup>

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA METODIKA VA AXBOROT MARKAZI  
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

RIFATILLA QOSIMOV

**AN’ANAVIY CHOLG‘U**  
**IJROCHILIGI**  
(RUBOB)

5A150702 – Cholg‘u ijrochiligi (An’anaviy cholg‘ular) magistratura  
5150700 – Cholg‘u ijrochiligi (An’anaviy cholg‘ular) bakalavriat

*Musiq va san’at kollejlari hamda oliy ta’lim muassasalari  
o‘quvchi-talabalari uchun  
o‘quv qo‘llanma*

Ikkinchi to‘ldirilgan nashr



«Musiq» nashriyoti  
Toshkent  
2020

85.315ya7

Q 61

**Qosimov, Rifatilla.**

An'anaviy cholg'u ijrochiligi (rubob): O'zbekiston respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Respublika metodika va axborot markazi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi: Musiqa va san'at kollejlari hamda oliy ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalari uchun o'quv qo'llanma. Ikkinchi nashr. /Muharrir B.Ashurov. – Toshkent: «Musiqa», 2020. 160 b.

**KBK 85.315ya7**  
**UO'K: 785(075)**

*Mazkur o'quv qo'llanma*  
*O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi*  
*Respublika metodika va axborot markazi*  
*hamda*  
*O'zbekiston davlat konservatoriyasi*  
*O'quv-uslubiy kengashi tomonidan*  
*nashrga tavsiya etilgan*

***Muharrir:***

B.SH.ASHUROV – O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi a'zosi,  
mustaqil izlanuvchi

***Taqrizchilar:***

“An'anaviy ijrochilik” kafedrasi dotsenti – I.TOSHPO'LATOVA  
Toshkent madaniyat kolleji direktori, dotsent – I.AZIMOV

O'quv qo'llanma an'anaviy ijrochilik mahoratini egallash uchun zarur bo'lgan milliy musiqa bezaklarining turlari, ijro uslublari va sayqallarini o'zlashtirishga asoslangan.

Qo'llanmadan akademik litsey va san'at kollejlari o'quvchilari ham foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-7397-8-9

© «Musiqa» nashriyoti, 2016, 2020.  
© R.Qosimov, 2016, 2020.

## KIRISH

Har bir xalq o'zining milliy musiqiy merosini sevsa, ajdodlar an'anasini ardoqlasa, uni munosib tarzda o'zlashtirsa va qadriga yetsa, o'zga xalqlar san'atini ham baholay oladi. Zero, bizgacha yetib kelgan musiqiy an'analar avlodlar zanjirining mustahkamligidan dalolatdir. Bu borada xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lgan maqomlar, maqom yo'llariga mansub mumtoz musiqa asarlari hozirgacha o'zining badiiy va estetik imkoniyatlarini yuqori darajada saqlab kelayotganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ularni o'rganish, tadqiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish zamonamizning talab va ehtiyojida bo'lgan dolzarb masalalardan biridir.

Ma'lumki, o'zbek xalqining musiqiy madaniyati milliy cholg'ularga boy bo'lib, tanbur, dutor, g'ijjak, nay, qo'shnay, surnay, chang, qonun, ud, rubob, doira va nog'ora kabi cholg'ular o'zining mukammalligi bilan mohir ijrochilar amaliyotida munosib o'rin topgan. Chunki har bir cholg'u o'zining shakllanish tarixi, ijro imkoniyatlari, betakror, jozibali sadolanishi va muhlislariga ega. Ularning barcha siru-sinoatlarini ilmiy-nazariy tadqiq etish va yosh avlodga yetkazish har bir murabbiyning muqaddas burchidir.

Taqdim etilayotgan mazkur o'quv qo'llanma konservatoriyaning an'anaviy ijrochilik kafedrasida magistraturasida qashqar rubobi mutaxassisligi sinfi bo'yicha saboq olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Shu bilan birga, undan musiqa oliy o'quv yurtlari ham foydalanishlari mumkin.

## RUBOB CHOLG'USI HAQIDA

O'zbekiston va Tojikistonda rubob (Pomir vohasini e'tiborga olmaganda) deyarli ikki turda – afg'on yoki buxoro rubobi va o'tmishda uyg'ur musiqa hayoti va ma'lum darajada ular orqali respublikamizning Farg'ona vodiysi hududlari uchun xos bo'lgan qashqar rubobi O'zbekiston, Tojikiston va O'rta Osiyoning o'zbek tojik va uyg'urlar yashaydigan hududlarida yakkanavoz va jo'rnavozlik cholg'u sifatida ommalashdi.

Afg'on rubobi, nisbatan tor doirada bo'lsada turli ijrochilar jamoasi tarkibida qo'llanilib kelinmoqda. Jumladan, Tojikiston rubobchi qizlar ansamblining tinglovchilar diqqatini jalb etib kelganligi O'zbekistondagi ayrim ansambllar va xalq cholg'ulari orkestri tarkibida takomillashtirilgan turining jo'rnavoz cholg'u sifatida ishlatilib kelinayotganligini misol qilish mumkin.

Zamonaviy jarayonga kelib an'anaviy afg'on yoki buxoro rubobining ijro imkoniyatlari hamda tabiiy xususiyatlariga mos tushadigan ma'lum cholg'u kuylari yaratila boshlandi. Bu cholg'u asbobining bizning hududlarimizga qachon kelganligi va ommalashganligi haqida ba'zi ma'lumotlar mavjud. Chunonchi, Darvish Ali Changiyning «Musiqiy risola»sida yozilishicha rebab Sulton Muhammad Xorazmshoh davrida (1200-1220 y.) qo'llanishda bo'lgan besh torli cholg'u. Uning to'rt tori ipakdan, biri kumushdan yasalgan. Mazkur torlaridan tashqari tovush tebranishi natijasida aks sado beruvchi 12 ta tor osti simlari mavjud bo'lib, ular chertilmagan. Xorazmshoh saroyidagi sozandalar ichida rebab chalishda Ustod Mahmudga tenglashadigani topilmagan. Shuningdek, rubob tasviri aks ettirilgan manbaa sifatida XVI asr miniatyuralaridagi tasvirlar ushbu cholg'uning o'sha davr musiqiy hayoti uchun xarakterli bo'lganligidan dalolat beradi.

Afg'on rubobi ko'rinishi va ijro uslubi jihatidan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. Uning katta rezonatori va mavjud «to'rt» pardasi, ya'ni parda boylangan kalta dastasi tut daraxtidan yasaladi. Bu ham uning o'ziga xos tembrining zaminidir.

Hajmi katta, baland avjli kuylarni ijro etishda rubob dastasining davomi sifatida, rezanator qopqog'ining ustki qismiga dastadagi asosiy 4 pardadan tashqari o'rnashtirilgan 6,7 xaspardalar asos bo'ladi.

Afg'on rubobida besh asosiy va diatonik tarzda sozlangan 10, 11 aks sado beruvchi simlar mavjud bo'lib, asosiylaridan 1 chi, 2 chi bilan 3 chi, 4 chi bilan 5 chi torlar kvarta oralig'ida sozlanadi.

Dutor va tanburdan farqi, afg'on rubobining barcha torlari ijroda keng qo'llaniladi. Afg'on rubobida chalish ma'lum darajada murakkab bo'lganligi sababli uni tanbur va boshqa ayrim cholg'ular singari deyarli mutaxassis sozandalar qo'lida ko'ramiz. Shuning uchun ham afg'on rubobida ko'pincha og'zaki an'anadagi professional musiqaga mansub cholg'u kuylari ijro etiladi. Ayni vaqtda xalq kuylari, ko'pincha tojik aytimlarining ushbu cholg'uda chalinishi ham odat tusidadir.

Bugungi o'zbek musiqiy hayotida o'zining ommaviyligi bilan alohida ajralib turadigan cholg'u sozlaridan biri qashqar rubobidir. Bu cholg'u mutaxassis sozandalar, havaskor ijrochilar, yakkanavoz rubobchi va xushovoz ashulachilar qo'lidagina emas, balki turli ansambllar va xalq cholg'u asboblari orkestri tarkibida takomillashtirilgan hamda yangi yaratilgan turlari munosib o'rin olgan.

Qashqar rubobning xalqimiz orasida ommalashib ketishiga sabab iqtidorli ijrochilarning yuksak mahoratidir. Shunday mohir rubobchilardan biri 1950 yillarda mashhur bo'lgan san'atkor Muhammadjon Mirzaevdir.

M.Mirzaev 1950 — 60 yillarda o'zining jozibali ijrosi bilan tinglovchilar diqqatini jalb etdi. Turli vohalarda bu cholg'u havaskor ijrochilar va mutaxassislar uchun qulay va sevimli sozga aylandi. Murakkab va mukammal shakldagi musiqiy namunalarni ijro etishda benuqson bo'lishi uchun ma'lum darajada takomillashtirildi. Xususan rubob dastasidagi pardalar 19, 24 taga yetkazilib xromatik tartibga keltirildi. Diapazon jihatidan ikki oktavadan ortiq tovush ko'lamiga ega bo'ldi. Uning kosasiga kiyik yoki ilon terisi qoplanishi va dasta ulanadigan joyidagi shohsimon ikki tayanchlari ijrochiga ma'lum qulayliklar yaratdi.

Qashqar rubobiga xos bo'lgan ijro imkoniyatlari maqom va maqom yo'llaridagi musiqiy namunalarni talqinida yaqqol namoyon bo'lishini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Chunki hozirgi paytda nisbatan sodda xalq kuylarini ijro etishda yoki ashulachilar tomonidan jo'rnavoz cholg'u sifatida ishlatilganida qashqar rubobining barcha imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, havaskor rubobchilar ham mutaxassis sozandalar repertuaridagi murakkab kuylarni ijro etishga intiladilar.

### **Rubob ijrochiligi**

Ma'lumki, boshlang'ich musiqa maktablarida qashqar rubobini ushlabdan boshlab, chap va o'ng qo'l xarakatlari, tovush chiqarish, sozlanish, barmoqlar joylashuvi kabi ijro uchun uslubiy ko'rsatmalar beriladi. Shu bilan birga, ijrochilikni o'sishi uchun nota yozuvi orqali ko'plab mashqlar, sodda va

ravon usulli ( $\frac{2}{4}$ ,  $\frac{3}{4}$ ,  $\frac{4}{4}$  o'lchovdagi) turli xarakterdagi texnik mashqlar tavsiya etilishi bizga darsliklardan ma'lum. Hozirgi davrga kelib, konservatoriyaga o'rta maxsus o'quv yurtlarini tugatgan yosh iqtidorli sozandalar qabul qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan mazkur o'quv qo'llanmada, asosan an'anaviy ijrochilikka oid uslubiy ko'rsatmalar tavsiya etiladi. An'anaviy ijroda qo'llaniladigan sayqal va bezaklar alohida ko'rinishda, mashqlar yordamida va yirik-yirik asarlar misolida berilgan.

Uslubiy ko'rsatmalarni berishda professor S.M.Taxalovning 1983 yili nashr etilgan «Afg'on rubobini chalishga o'rgatish metodikasi asoslari» kitobi qulaylik yaratdi va mazkur ishimizga turtki bo'ldi.


Turli yo'nalishdagi asarlarni ijro etishda qashqar rubobi uchun xarakterli bo'lgan o'ziga xos (torlar) sozlanishlaridan foydalanamiz.

### Qashqar rubobi torlarining sozlanishi

Ma'lumki shu davrgacha boshlang'ich maktablari uchun yaratilgan rubob darsliklarida, pardada barmoqlarning joylashish holatlari, ijro uchun mashqlar, etyudlar, kuylar — asosan Ovrupa musiqa ijrochiligiga xos ko'rsatmalarga taqlidan yondoshilgan.

An'anaviy musiqa ijrochiligi o'ziga xos milliy bezaklarni va ularni sharqona talqini uchun mos uslublarni taqazo etadi. Bu faqat barmoqlar xarakatlari bilan jonlantiriladi. An'anaviy ijrochilikda bu omilni mukammal talqini uchun bir qator amallarga rioya qilinishi talab etiladi. Birinchidan bu rubob sozi, ikkinchidan barmoqlar xarakati va uchinchidan — o'ng qo'l zarblaridir.

Rubob torlarida barmoqlarning an'anaviy ijrochilikka xos bo'lgan joylashishiga oid ikki xil sozni asos qilib olib, shu sozlar asosida va jadval yordamida barmoqlar joylashishini ifoda etamiz»

Sozlar»  Jadvalda, an'anaviy ijrochilikka xos milliy bezaklarni amaliy ifoda etish uchun qulay barmoqlar

joylashuvi aks ettirilgan.

#### 1 jadval

lya torida   
mi toridagi 

#### 2 jadval

lya torida   
re toridagi 

An'anaviy musiqa ijrochiligida asosan 1-, 2- va 3- barmoqlar turli xildagi nolalarni to'laonli ifoda etilishida qo'llaniladi. 3-va4-barmoqlar ko'proq forshlagsifat bezaklarni ijro etishda qulaydir.

Rubobda xalq kuylari, bastakorlar asarlari, maqom sho'balarni yakka ravishda ijro etilganda, aynan talab etilgan pardadan emas, balki, rubobga xos va soziga mos bo'lgan pardalardan boshlab ijro etish maqsadga muvofiqdir.

Rubob soziga moslab yozilgan kuylar asosan 1-sanalmish «lya» torida ko'proq ijro etiladi, Ushbu torida ikki oktavagacha bo'lgan kuylarni ijro etish mumkin. Lekin, maqom kuy va ashulalari orasida ikki oktava va undan ortiq bo'lgan musiqiy namunalar mavjud. Shu bois boshqa torlarda ham imkoniyat darajasida kuy jumllarini boshlash mumkin.

Shuni ham alohida ta'kidlamoq zarurki, ayrim xollarda ijro etilayotgan kuylarga xarakterli bo'lgan bezaklarni hosil qilishda chap qo'l barmoqlari - pardalardagi joylashuvi o'zgarib turishi tabiiydir. Chunki an'anaviy ijro jarayoni shuni taqazo etadi.

Masalan: Tasnifi Buzruk, Tasnifi Rost, Tasnifi Iroq, Saraxbori Buzruk, Saraxbori Segoh, Saraxbori Iroq va h.k. Shu kabi asarlarni ijro etishni 2- «mi» yoki «re» torlaridan boshlashni tavsiya etamiz.

Jadvalda biz asosan ikki xil sozga mansub bo'lgan chap qo'l barmoqlarining pardalardagi joylashuvini ko'rsatishga xarakat qildik.

Rubob torlarining 3-chisi — «si» yoki «lya» tovushlariga sozlanadi va kuy jumllarining boshlanishida yoki yakunlanganda qo'shib ijro etiladi. Bu tor ko'proq «bilak zarb» (13 -betga qarang) ijrosida qo'llaniladi, Shu bois, jadvalda 1-va 2-torlardagi barmoqlar joylashuvini aks ettirish bilan chegaralandik.

### An'anaviy musiqa ijrochiligiga xos zarblar (ushlubiy tushunchalar va nota misollari)

Qashqar rubob, afg'on rubob, ud, tanbur va dutor kabi milliy cholg'ularimiz ijrochiligida mezrob (mediator) yoki noxun orqali hosil qilinadigan oddiy va murakkab bo'lgan zarblar bir necha xildan iborat. An'anaviy musiqa ijrochiligida urib chalinadigan torli cholg'ularga xos bo'lgan zarblarning asosan sakkiz xili haqida tushuncha berishni lozim ko'rdik. Bular: yakka zarb, qo'sh zarb, zarbi parron (uchma zarb), bilak zarb, rez, kalta rez, teskari zarb va ufar zarb.

Ushbu zarblar uchun mashqlar berishdan maqsad, ijrochini chap va o'ng qo'l harakatlarini musiqiy asarlar ijro etish oldidan jonlashtirish va tavsyya etilayotgan kuyning pardalariga ko'nikma hosil qildirishdir. Tavsiya etilayotgan mashqlar oddiydan murakkabga tomon yo'naltirilgan bo'lib, bunda asos qilib maqomlardagi tovushqatorlar rubobga moslashtirib berilgan. Shu tufayli mashqlarni asosan Shashmaqom, Toshkent-Farg'ona cholg'u yo'llarining tuzuk tuzilishlariga moslashni lozim topdik.

Ma'lumki har bir cholg'uda maqomlar yoki yirik shakldagi an'anaviy musiqani ijro etish imkoniyatlari turlichadir. Ustozlarimiz har bir maqomning asosiy pardalariga e'tibor bergan xolda nota yozuviga olganlar. Bunda tanbur sozining etakchi bo'lganligi ayon. O'quv qo'llanmada, asosan qashqar rubobi uchun xarakterli bo'lgan maqom kuylari, xalq musiqalari va bastakorlar asarlari

o'rin olgan. Shu bois, yuqorida ta'kidlaganimizdek, biz har bir mashq va kuylarni mazkur rubob soziga moslashtirdik.


**Yakka zarb** — tovush chiqarishning eng oddiy usulidir. U rubob, tanbur, dutor, ud, chang, qonun cholg'ularida ijro etishning asosiy poydevoridir.

Yakka zarb mezrobni — noxunni torlarda pastga yoki yuqoriga urish bilan hosil qilinadi. Mezrob yoki noxunni pastga urish — nota ustiga n belgisi, pastdan yuqoriga urish esa V belgisi bilan ifodalanadi. Buzruk maqomi tovushqatorida tavsiya etiladi.

**Buzruk maqomining tovushqatori:**



**Rubob uchun moslashtirilgan tovushqator:**



**Rubob sozlanishi:**

**Qo'sh zarb** — Mezrob yoki noxunni pastga va yuqoriga urib chalingan yakka zarb harakatlarining bir tekisda almashinib turishi natijasidagi tovush chiqarish usuli — qo'sh zarb deb yuritiladi.

U bir xil uzunlikdagi



shuningdek turli uzunlikdagi


tez va o'rtacha su'ratli tovushlarni ijro etishda xarakterlidir.

Shuni e'tiborga olgan xolda maqomlarning asosiy tovushqatorlarini qashqar rubobiga moslashtirgan xolda — nota misollarini keltirish va tanbur soziga nisbatan bayon etishni lozim deb topdik.


O'quvchiga qulaylik yaratish maqsadida dastlab asosiy tovushqatomi, so'ng rubob namunasini keltirib boramiz.

**tanbur sozi**

**Buzruk maqomi**




**rubob sozi**



**tanbur sozi**

**Rost maqomi**




**rubob sozi**



**tanbur sozi**

**Navo maqomi**



**rubob sozi**




**tanbur sozi**

**Dugoh maqomi**




**rubob sozi**




**tanbur sozi**

**Segoh maqomi**




**rubob sozi**




**tanbur sozi**

**Iroq maqomi**



**rubob sozi**




**ZARBI PARRON (uchma zarb)**


Zarbi parron muntazam va tez-tez qo'llaniladigan usul bo'lib, qashqar rubobi, afg'on rubobi, ud, tanbur, chang, qonun sozlari uchun xalq kuylari va maqomlarni ijro etishda xarakterlidir. U mezrob yoki noxun bilan yuqoridan



pastga va pastdan yuqoriga tez zarb berib chalinadi. Zarbi parron asosiy

tovushga yordamchi sifatida keladigan bittalik forshlagini eslatadi: 

An'anaviy musiqa ijrochiligimizda mazkur zarb qo'sh forshlag ko'rinishida ham uchraydi. Bir tovushning o'zida zarbi parron xosil qilish

an'anaviy ijrochilikka xosdir: 

**BILAK ZARB** - O'ng qo'lni butun tor bo'ylab yuqoridan pastga sirg'anma xarakatlanishda mezrob yoki noxun bilan tovush chiqarish usuli bilak zarb deyiladi. U soz ijrosidagi «arpedjio» usulini eslatadi. Bilak zarb taktning kuchli xissasida qo'llaniladi. U musiqiy jumlaning oxirida ham keng qo'llanishi mumkin. Bu amal kuyga mayinlik va yakuniylik baxsh etadi.

Bilak zarbga xos va eshitilishi yoqimli bo'lgan intervallar — bu kvarta, kvinta, oktava hisoblanadi. U nota oldidagi to'lqinsimon tik chiziq bilan belgilanadi.

Ijrochiligimizda rubob sozlanishining uch turi mavjudligi bois ularga xarakterli bo'lgan tovushlarni nota misollarida keltiramiz: rubob sozi




rubob sozi



rubob sozi



**KALTA REZ** — An'anaviy musiqa ijrochiligida har bir nota alohida-alohida bir tovushdan ikkinchi tovushga o'tmay rez berish xollari uchrab turadi. Bunday usul — kalta rez deb ataladi. Kalta rez qashqar va afg'on ruboblarini ijro etishda foydalaniladi. U bir xil va turli balandlikdagi tovushlarni ijro etishda


qo'llaniladi. Nota yozuvida kalta rez kichik chiziqcha bilan belgilanadi. 

**SEGOH** (Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan)

**Og'ir**



**TESKARI ZARB** — o'ziga xos «sinkopa»li ritm xarakteriga ega bo'ladi. U noxun yoki mezrob bilan bir tomon (past)ga zarb berishning ikkinchi choragiga qat'iy rioya qilish va bir yo'nalishdagi zarbning oxirgi choragini sakkizdan uchini birlashtirilishi natijasida hosil bo'ladi. Ya'ni noxunning 1, 3, 4, 6, 7,— zarblari pastga, 2, 5, 8—zarblari yuqoriga qaratib beriladi.



Bu o'rinda qo'sh zarbning joyi (mezrob bilan pastga va yuqoriga bo'lgan bir tekis xarakter) o'zgaradi va 1 —, 4 —, 7 —tovushlar urg'u bilan ijro etiladi.

**Dutor Bayoti**

**Tez, jonliroq**



Teskari zarbning yana ijrochiligimizda boshqacha turlari ham bor. Bunda noxun yoki mezrobning 1 —, 4 —, 7 — zarblari pastga, 2 —, 3 —, 5 —, 6 —, 8 —zarblar yuqoriga qaratib beriladi.



**Gilos**

**N.Xasanov kuyi**



**REZ** — mezrob yoki noxun bilan pastga va yuqoriga zarb berishning tez va ustma-ust almashinishidan iborat bo'lib, chertib chalinadigan torli cholg'ularda, tovushlarni bir-biriga bog'lab (uzluksiz) ijro etishning asosiy usulidir.

Rez ko'proq erkin ijroga xos bo'lgan surnay yo'llarini, katta ashulalarni rubob soziga moslashtirib ijro etishda xarakterlidir. U Farg'ona-Toshkent ashula va cholg'u yo'llari, Shashmaqom sho'bxalarini ijro etishda ham muhim ahamiyatga egadir. Rezni bir tekisda ifodali ijro etish sozandadan muntazam mashq va katta mahorat talab etadi.

Rez faqat katta cho'zimlik (yarimtalik ) va butun ) notalar emas, balki bir necha taktlardagi kuy jumlarini uzmasdan ijro etilishida ham keng qo'llaniladi. Bunday paytlarda rez usulining chegaralari «liga» bilan belgilanadi. Misol:

Tasnifi Navo

10 xona




11 xona



Ufar zarb —  $\frac{6}{8}$  o'zbek xalq yalla va raqs kuylari uchun xarakterlidir. Mazkur usul an'anaviy musiqa ijrochiligimizda keng qo'llaniladi. Oddiy xalq kuylaridan boshlab murakkab janr — Shashmaqomning ikkinchi guruh sho'habalarida mavjud beshinchi — tugallanish qismlarida Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarida, vohalarga mansub kuy va ashulalarda ko'plab uchraydi. Bu usul xalqda Ufar zarb deb ataladi.

Mumtoz musiqa amaliyotida ufarlar ikki xil, ya'ni  $\frac{6}{8}$  va  $\frac{3}{4}$  o'lchovlarida notada aks ettirilgan. Kuylarni notaga yozishimizda  $\frac{6}{8}$  o'lchovdagi ufarlar ko'proq bo'lib, ular sho'hchan yoki raqsga chorlovchi xarakterga ega. Og'ir ufarlar ( $\frac{3}{4}$ ) esa mumtoz musiqiy merosimiz hisoblanmish maqom turkumlarining yakunlovchi qismlarida mavjuddir.

Ufar zarbning  $\frac{6}{8}$  o'lchovga molik namunalari asosan ikki xil usulda ijro etiladi. Bu usullarni bir-biridan farqlab olishimizda nota ustidagi belgilar yordam beradi.



Tong (2-qism)


Sho'h

A. Ismoilov kuyi




Ufar zarbning  $\frac{3}{4}$  o'lchoviga (og'ir ufar) xos misol:

Ufari Bayot



Xuddi shu kabi kuylarni rubob soziga moslab yozganimizda notalar ustiga qo'yilgan mezrob belgilari quyidagicha belgilanadi:



O'ZBEK AN'ANAVIY MUSIQA IJROCHILIGIGA XOS BEZAKLAR

Odatda, o'zbek xalq va ustozona musiqa ijrochiligida oddiy tovushlarni turli xildagi bezak va sayqallar bilan boyitib ijro etish muhim mezonlardan hisoblanadi. Zero, tovushlarni sayqal bilan ijro etish har bir Sharq xalqlari musiqa ijrochiligiga xos an'anadir. Bu omil ohang mazmunini boyitib, xalqlar ruhiyatini ifodasi demakdir.

Milliy musiqa ijrochiligida qo'llaniladigan bezaklarning maxsus atamalar bilan nomlanishi ko'pchilik sozanda va xonandalarga ma'lum.<sup>1</sup> Masalan: «qochirim», «to'lqinlatish», «nolish», «molish», «kashish» va boshqalar. Ularning ayrimlari tovushning sifatini belgilaydi.

QOCHIRIM — oddiy va murakkab melizm (kuyni turlicha qisqa tovushlar bilan bezatuvchi belgi)larning barcha turini o'z ichiga oladi:

BEZAKLAR — forshlaglar turlari:

BIDRATMA — trellar turlari:

SAYQAL - mordentlar turlari.


O'zbek an'anaviy musiqasida qo'llaniladigan bezaklarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1) ODDIY — bir tovushdan tashkil topgan

2) QO'SH - ikki tovushdan tashkil topgan

3) UCHTALIK — uch tovushdan tashkil topgan

Ijroda bu bezaklar yangrash lozim bo'lgan tovushlar hisobida bo'ladi.



<sup>1</sup> Tajribalar asosida bizga ma'lum bo'lgan ayrim bezaklar xususida baholi qudrat tushuncha bermoqchimiz. Bularni to'laqonli izoh etishda ustozlarimiz tomonidan yaratilgan bir qator o'quv qo'llanmalarining mavjudligi ishimizga asosiy turki bo'ldi.

**Orzu dil**  
Misol (oddiy bezak uchun)

Sho'hehan M.Mirzaev musiqasi

**Nag'mai Orazi Navo**  
Misol (qo'sh bezak uchun)

Soz 1 xona

**Payravi asal**

Uchtalik bezak esa faqat bir tovushning takrorlanishi bilan ijro etiladi.  
Misol:

**Ushshoq**

Torga ulab ijro etiladigan bezaklar nota yozuvida keng rasm bo'lib, qolgan zarb belgilarining biri bilan n, torga urmagan xolda erishiladigan bezaklar esa nota ustiga qo'shuv (+) belgisini qo'yish bilan belgilanadi.

**Mushkiloti dugoh**

BIDRATMA — ikki yonma-yon tovush tebranishidan hosil qilinadi. U eng qisqa va eng uzun tebranishdan iborat bo'lishi mumkin.

Mezrobni torga urib va torga urmasdan ijro etish usuli bidratmaga ham taaluqlidir.

Qo'shuv belgisi bilan belgilanadigan trellar quyidagicha ijro etiladi: birinchi tayanch tovush mezrobni torga urib chalinadi, qolgan amallar (yordamchi tovushlar) torga urmagan xolda hosil qilinadi:

Qo'shuv belgisi bo'lmaganda tovushlar noxunni pastga va yuqoriga urish bilan ijro etiladi.

**O'zbek xalq kuyi**

SAYQAL (mordent) - bidratmadan tamomila farq qiladi. Agar bidratma uzun va qisqa notalarga (nota cho'zimiga qarab) bevosita taaluqli bo'lsa, sayqal uch yoki besh tovushdan tashkil topadi. Uni ijro etishda; dastlabki asosiy notadan uni cho'zimini yarmigacha qisqartiriladi. Sayqalni nota yozuvida quyidagicha belgilaymiz:

a) uch tovushdan iborat sayqal — odiy mordentning melizmatik belgisi bilan belgilanadi. Yuqoridagi ko'rsatma-tovushlar oralg'ini anglatadi:

b) pastda yotuvchi yordamchi tovush — odiy o'chirilgan mordent belgisi bilan belgilanadi. Yuqoridagi ko'rsatma — tovush oralg'idir:

v) besh tovushdan iborat sayqal — mordentning melizmatik belgisi bilan belgilanadi. Yuqoridagi ko'rsatma tovushlar oralg'idir:

g) pastga yotuvchi yordamchi tovush ton yoki yarim ton — qo'sh chizilgan mordent belgisi bilan belgilanadi:

An'anaviy ijrochilikda sayqalning yuqorida keltirilgan barcha shakllari asosan torga bir zarb berish bilan ijro etiladi. Bu zarb asosiy tovushga to'g'ri keladi. Bunda mordentlarning (bitalik, qo'shaloq, chizilgan) hamma belgilari ustiga qo'shuv belgisi qo'yiladi.

A

B

V

G

Mazkur ijro bezaklariga kichik bir misol:

**Tarje' Buzruk**

TO'LQINLATISH— (vibrato)  $\overset{\sim}{\text{f}} \overset{\sim}{\text{p}}$  deyarli barcha xalq cholg'ulari va ashula ijrochiligi uchun xos bezak. Rubobda barmoqni pardaga bosib mezrob bilan urilgandan so'ng barmoqning o'zida torlarni titratish yo'li bilan hosil qilinadi. Shuningdek, ushbu bezakdan butun, yarimtalik, choraktalik va nimchorak notalarni ijro etganda foydalanish mumkin. Misol:

**Garduni Dugoh**

Bozgo'y

**Garduni Segoh**

1 xona

Nolish — yarim tongacha bo'lgan o'ziga xos yirik bidratma. Qashqar va afg'on ruboblarini chalganda bu usul chap qo'l barmoqlarini bir tekisda dastada ko'ndalangiga harakatlantirish bilan ijro etiladi. Bu bezak  $\text{****}$  belgisi orqali ifodalanadi. Misol:

**O'rtacha tez**

MOLISH— barmoqni bir tovushdan ikkinchi tovushga ohangdor, ohista sirg'altirish usuli. U «glissando»ga yaqin bo'lib, badiiy talqin qilishning muhim vositalaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, tovush chiqarishning bir necha turlari bilan xarakterlanadi.

a) kvartadan oktavagacha va undan ham ortiq intervallarda (pastdan yuqoriga, shuningdek yuqoridan pastga) bir tovushdan ikkinchi tovushga sirg'alib o'tish. Bunda sirg'alish boshlang'ich tovushni oluvchi barmoqdan boshlanadi, keyingi ton boshqa barmoq bilan olinadi.

b) kichik va katta sekunda ham tertsiya intervallarida pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga bir tovushdan ikkinchi tovushga bir barmoqda sirg'alib o'tiladi.

Bir barmoqning sirg'ali-shi boshqa (yuqoridagi yoki pastdagi) barmoq bilan almashtirilgan usul ham uchrab turadi. Bu xolda, qo'lining rubob dastasiga

ko'proq tayanch xoldagi o'ziga xos glissando hosil bo'ladi, bunda tor bir xil kuch bilan tekis musiqiy sado beradi.

v) barmoqning bir necha yondosh tovushlar (ton yoki yarim ton) bo'yicha birin-ketin sirg'alishi. Bu usul faqat bir barmoq bilan bajariladi.

Molish an'anaviy musiqa ijrochiligida keng qo'llaniladi. Misol:

**Mushkiloti Dugoh Talqinchasi**

a

**Surnay Dashtnavosi**

b O'rtacha tez

1

2

**Navro'zi Sabo**

KASHISH — yarim ton doirasida amalga oshiriladigan bezak usuli. Bunda barmoqlar rubob dastasida ko'ndalang turgani xolda torni yuqoriga va

pastga torgandek harakat qiladi.

Butun ton doirasidagi kashish — uchi yumaloq mordent bilan belgilanadi:

$\overset{\sim}{\text{f}} ; \overset{\sim}{\text{p}}$

a) bir zarbli kashish:  $\overset{\sim}{\text{f}} \overset{\sim}{\text{p}} ; \overset{\sim}{\text{f}} \overset{\sim}{\text{p}}$

b) ikki zarbli kashish:  $\overset{\sim}{\text{f}} \overset{\sim}{\text{p}} ; \overset{\sim}{\text{f}} \overset{\sim}{\text{p}}$









v) uch, to'rt zarbli kashish (bunda zarblar ixtiyoriy ravishda har xil bo'lishi mumkin);  $\overset{\sim}{\text{f}} \overset{\sim}{\text{p}} ; \overset{\sim}{\text{f}} \overset{\sim}{\text{p}}$

bo'lishi mumkin);



g) rez— (tremolo) — usulli kashish:  
Kashishning barcha ko'rinishi og'zaki an'anadagi mumtoz kuylarda va ayniqsa, maqom ijrochiligida keng qo'llaniladi.

### O'QUV QULLANMADAGI SHARTLI BELGILARGA IZOHLAR.

-  – Mezzo-forte (mediator)ni pastga urish belgisi.
-  – Mezzobni yuqoriga urish belgisi.
-  – Ushbu belgi “zarbi parron” ya’ni “uchma zarb” deb nomlanadi. Zarbi parron usuli an’anaviy rubob ijrochiligida keng qo’llanilib, bunda mezrob bilan yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga tez zarb berish bilan hosil etiladi. U asosiy tovushga yondosh bo’lgan yordamchi tovush bittalik forshlagini eslatadi.
-  – Zarbi parronning ikkinchi turi qo’sh forshlag holda uchraydi. Bu usuldan ham milliy an’anaviy, ham Evropa musiqa ijrochiligida keng foydalaniladi.
-  – Diminuendo – Tovushni asta-sekin pasaytirib chalish belgisi.
-  – Kreshchendo – Musiqa asarining sadolanish kuchini asta-sekin zo’rayib borishi.
- p* – Piano – Tovush kuchini ohista sadolanishi.
- f* – Forte – Tovushni kuchli sadolantirish.
- mf* – Mezzo-forte – Tovush kuchini o’rtacha sadolanishi.
- mp* – Mezzo-piano – Tovush kuchini o’rtacha ohista sadolanishi.
-  – Glissando – bir tovushdan ikkinchi tovushga sirg’anib o’tish. Uni ijro etishda ruboblar uchun birinchi yoki ikkinchi barmoqlar qulaydir.
-  – Liga – bunday ko’rinishdagi notalarni ijro etishda rubobchilar asosan rez (tremolo) usulidan keng foydalanishadi.
- rit. (ritenuto)* – Ritenuto – kuyning ijro sur’atini asta sekinlashtirib borish. Qisqacha belgisi: *rit.*

### O'QUV QULLANMADAGI KUYLARGA QISQACHA IZOHLAR

**Jonon, Shodlik, Dilbar, Dildor 1, Dildor 2, Parvona bo'ldim** – kuylari mashhur sozanda va bastakor Muhammadjon Mirzayev ijodiga mansub.

**Tong** – sozanda va bastakor Abduhoshim Ismoilov musiqasi.

**Kuygay** – Yunus Rajabiy musiqasi, Hamid Olimjon she’ri. “Muqanna” nomli musiqali dramasi qiz qo’shig’i”. Ushbu asar 1940-yillarda yaratilgan va mashhur bo’lgan. Hozir ham ko’plab xonandalar ijrolarida yangraydi. So’nggi yillarda kuy T.Alimatov talqinida yanada sayqal topdi va sozandalarning dasturlaridan keng o’rin oldi. O’quv qo’llanmadagi namunasini T.Alimatov ijrosidan R.Qosimov rubobga moslashtirib notaga olgan.

**Ey Sabo** – Doni Zokirov musiqasi, A.Navoiy g’azali. Ashula atqli hofizlarimiz ijrolarida xalq orasida keng ommalashgan. Shu bilan birga deyarli barcha milliy cholg’ularga zabardast sozandalar tomonidan moslashtirilgan. Taqdim etilayotgan namunasini T.Alimatov ijrosidan R.Qosimov rubob cholg’usiga moslashtirib notaga olgan.

**Guluzorim** – Hoji Abdulaziz Abdurasulov musiqasi, A.Navoiy muxammasi. Ushbu ashula “Farg’ona Eshvoyi” asosida yaratilgan. Ustoz hofizlar talqinlaridagi mukammal ijro namunalari O’zbekiston teleradiokompaniyasining musiqiy yozuvlar oltin xazinasida saqlanadi. CHolg’u kuyi sifatida barcha milliy sozlarimizda yangraydi. O’quv qo’llanmada berilgan namunasini T.Alimatov ijrosidan R.Qosimov rubob cholg’usiga moslashtirib notaga olgan.

**Gulyoraxon** – xalq qo’shiqlaridan biri bo’lib, “Fabrika” nomi bilan ham mashhur. 1939-yilda nashr etilgan “O’zbek xalq qo’shiqlari” va 1958-yilda nashr etilgan “O’zbek xalq muzikasi” (IV jild) to’plamlarida berilgan. Mazkur qo’shiqning kuyi sozandalar ijrolarida keng ommalashgan. Ushbu o’quv qo’llanmadagi namunasini Turg’un Alimatov ijrosidan Rifatilla Qosimov rubob cholg’usiga moslashtirib notaga olgan.

**Bilakuzuk** – xalq so’zi raqs bilan aytiladigan xalq laparlaridan. 1958-yilda nashr etilgan “O’zbek xalq muzikasi” (IV jild) to’plamida berilgan. Ushbu qo’shiqning kuyi ham xalq orasida keng ommalashgan bo’lib, T.Alimatov tomonidan “Gulyoraxon” kuyiga ulab ijro etilgan. T.Alimatov ijrosidan R.Qosimov rubobga moslashtirib notaga olgan.

**Qo’shchinor** – A.Navoiy g’azali bilan aytiladigan ashula yo’li atqli hofizlarimiz ijrolarida muntazam yangraydi. Deyarli barcha milliy cholg’ularimizga moslashtirilgan va sozandalar dasturidan keng o’rin olgan. Mazkur qo’llanmadagi namunasini T.Alimatov ijrosidan R.Qosimov rubobga moslashtirib notaga olgan.

**Gulbahor** – qadimgi xalq kuylaridan bo’lib, Yu.Rajabiy tomonidan notaga olingan va «O’zbek xalq musiqasi»ni 2-jildiga kiritilgan.

**Tanovar** – xalq kuyi. Tanovarlarning xalq orasida o‘ndan ortiq turi mavjud. O‘quv qo‘llanmaga kiritilgan namunasi sozandalar ansambliga xos bo‘lib, «Gulbahorga» ulab ijro etilgan.

**Munojot I, II, III** – mashhur xalq kuylaridan bo‘lib, turkum tarzda ham sozandalar ijrolarida yangraydi. Birinchi qismiga bastakor Imomjon Ikromov A.Navoiy “Ul sarvi gulro‘ kelmadi” nomli g‘azalini bog‘lagan musiqiy asarning xalq orasida yanada ommalashuviga sabab bo‘ldi. Ashula yo‘li ko‘plab hofizu xonandalar ijrolarida sayqal topgan. O‘quv qo‘llanmadagi namunasi T.Alimatov ijrosidan R.Qosimov rubob cholg‘usiga moslashtirib notaga olgan.

**Hojiniyoz** ustozona kasbiy musiqaning yorqin namunalaridan biri bo‘lib, maqomlar yo‘lida yaratilgan ikki qismli turkum asardir. Bu asar akademik Yunus Rajabiy tomonidan notaga tushirilgan bo‘lib, “O‘zbek xalq musiqasi” kitobining II jildidan o‘rin olgan.

An‘anaviy musiq merosining namunalari azaldan yirik shaharlar, vohalar, bastakorlar, holatlar nomlari bilan atalgan. Jumladan bizga ma‘lum “Muxammasi Xo‘jahoji”, “Muxammasi Mirzahakim”, “Saqli Bastanigor”, “Nasrullovi”, “Iroq”, “Segoh”, “Rajabiy” kabi o‘nlab atama-nomlar mavjud.

Ustoz san‘atkorlar bergan ma‘lumotlarga ko‘ra “Hojiniyoz” ham atoqli ism bo‘lib, bu shaxs Toshkentda yashab ijod etgan bastakorning nomidir. Hojiniyoz ashulasining azaldan ikki namunasi mavjud bo‘lib, ular Hojiniyoz I va Hojiniyoz II deb yuritilgan. Aksariyat sozandalar tomonidan cholg‘u yo‘li sifatida ijro etilgan. Lekin nota manba‘ida ko‘rsatilgan ashula yo‘li ekanligi va ikkisi ham Navoiyning g‘azallari bilan aytilganligi bizga ma‘lum.

Nazarimizda uning “O‘zbek xalq musiqasi” kitobida berilgan ashula yo‘li bo‘lib qisqacha shaklda yozilgan. Hojiniyoz I-ning hozirda bizga ma‘lum cholg‘u yo‘lini tinglaganimizda unda kuy to‘laligicha saqlanib qolganligi yoki keyinchalik ustoz-sozanda bastakorlarimiz tomonidan shaklan va mazmunan kengaytirilib, boyitilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Mohir sozanda va bastakor Abduhoshim Ismoilov “Hojiniyoz” kuyini mashhur ustoz Maxmudjon Muxammedovdan o‘rganib, unga o‘zgacha jilo bergan, hamda shu tarzda gramyozuvga tushirgan edi. Aynan shu namuna asosida biz ham kuyni rubob cholg‘usiga moslashtirdik. Ushbu gramplastinkada (S 30 19765-66003) Hojiniyoz I va II birin-ketin ulanib ikki qism shaklida ijro etilgan. Musiq amaliyotimizda Hojiniyoz II namunasi ashula yo‘li ko‘pchilik xonandalarimiz repertuaridan o‘rin olgan. Ushbu qism bir qator mumtoz shoirlarimizning turli g‘azallari va muxammaslari asosida ijro etilgan. Bu o‘rinda Navoiy g‘azali bilan aytilgan “Ey sarvinoz gulshani bog‘i malohatim”, Miskin muxammasi bilan “Xumorman”, Qori Pirim muxammasi bilan “Holim xarobdur” singari she‘riy matnlarni aytib o‘tish mumkin.

Hojiniyoz I, II turkumining mohir sozanda va xonandalar orasida mashhur ekanligi uni an‘anaviy usulda turkumlashtirishimizga sabab bo‘ldi. Bunda musiq merosimizning bir qator namunalari turkumlanish qonuniyatlari

jihatidan mufassal o‘rganildi hamda o‘zlashtirilgan an‘ana usullari Hojiniyoz turkumining uchchala qismlarini yaratishimizda muhim tayanch bo‘ldi.

Binobarin an‘anaviy musiq turkum-shakllarining barcha qonun-qoidalari va ijro xususiyatlariga amal qilgan holda mazkur asarni turkum shaklida rivojlantirdik.

Odatda turkum asarlarning boshlang‘ich qismi o‘zidan keyingi qismlarning yuzaga kelishda muhim omildir. Turkum asarlarning yana bir xususiyati shundaki, ular doira usullarining xilma-xilligi bilan farqlanadi. Masalan: Shashmaqom ashula qismning I guruh sho‘balaridagi Sarahbor, Talqin, Nasr va Uforlar; II guruh sho‘balaridagi Savt va Mo‘g‘ulchalar hamda ularning tarkibiy shaxobchalari (Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufor), Farg‘ona-Toshkent maqomlaridagi Bayot, Dugoh, Chorgoh kabi turkum majmualari ana shunday qonuniyat asosida yaratilgan.

Maqomlarni yirik turkum asarlar bo‘lib shakllanishida esa hozirga qadar davom etib kelayotgan bastakorlik san‘ati an‘analarining mahsuli benihoya ahamiyatlidir.

Shu jumladan bizning kichik ijodiy tajribamiz ham bu fikrga dalil bo‘la oladi.

“Hojiniyoz”ni 5 qismli turkumini yuzaga keltirishda Shashmaqomning II guruh sho‘balari va ularning Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufor kabi tarkibiy shaxobchalarida tartiblanishi asos bo‘ldi. Bunda Soqiynoma qismi asosiga oldindan mavjud bo‘lgan “Hojiniyoz” II olindi. Bu o‘rinda biz “Hojiniyoz” II-ni kuy-ohang, shakl-tuzilish jihatlarini saqlagan holda uni Soqiynoma usuliga tushirdik. Lekin shuni ham aytib o‘tish kerakki, ushbu shaxobchani ham avvalgi qismlarga monand ravishda asosiy (boshlang‘ich) pardadan rivojlantirish mumkin. bizning maqsad esa asl holda aynan saqlab qolish bo‘ldi.

Turkumning so‘ngi qismi Ufor bo‘lib, u sho‘x, jozibali tusga ega. U ko‘p jihatdan Farg‘ona-Toshkent musiq uslubiga yaqindir.

Xulosa qilib aytganda, biz ma‘lum “Hojiniyoz” kuyini Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufor kabi tarkibiy shaxobchalar bilan to‘ldirib mukammal turkum shakliga keltirishga harakat qildik. Hozirda yuzaga kelgan 5 qismli Hojiniyoz turkumlari konservatoriyaning an‘anaviy ijrochilik kafedrasida sozanda-talabalariga o‘rgatib kelinmoqda.

O‘quv qo‘llanma muallifi tomonidan “O‘zbek xalq musiqasi” kitobining 3-jildiga kiritilgan «Sarbozcha», «Mirzadavlat –1, 2», kuylari ham rubob uchun moslashtirildi.

**Eshvoy** – bu kuy Xorazm doston yo‘llaridan bo‘lib, XVIII asr oxirida yashagan Eshvoy baxshi nomiga nisbat berilgan. Eshvoy kuyining besh xili mavjud, bular: «Doston Eshvoyi», «Kurd Eshvoyi», «Eshvoy Urganjiy», «Farg‘ona Eshvoyi», «Turkman Eshvoyi» deb nomlanadi. O‘quv qo‘llanmaga kiritilgan namunasi «Farg‘ona Eshvoyi» deb ataladi va bu kuy Toshkentda ham mashhurdir. Ushbu kuyni ilk bor toshkentlik dutorchi sozanda Abdusoat Vahobov (1875-1934) ijrosida E.E.Romanovskaya tomonidan yozib olingan va

1948 yili chop etilgan «O'zbek cholg'u muziqasi» to'plamiga kiritilgan. Mazkur namuna Yu.Rajabiy yozuvida «O'zbek xalq muzikasi»ning 2-jildidan olindi.

**Navro'zi Ajam** – Toshkent-Farg'ona vohasiga mansub cholg'u kuylaridan biri. Navro'zi Ajam bilan birga Ajam va uning taronalari mavjud. Ular Ajam I, Ajam II, Ajam III, Ajam IV deb ham yuritiladi.

Mazkur kuylar alohida va turkum tarzda sozandalar ansambli hamda yakka cholg'ularda ommalashgan. Ushbu o'quv qo'llanmadagi namunasini T.Alimatov ijro uslubiga tayanib, sozanda A.Zufarov talqinida R.Qosimov rubobga moslashtirib notaga olgan.

**Nasrullo I, II, V** – Toshkent-Farg'ona vohasining mashhur turkum cholg'u kuylaridan. Nasrullo besh qismdan iborat. U kuyidagi tartibda nomlanadi.

Nasrullo I

Nasrullo II, birinchi taronasi – chapandoz.

Nasrullo III, ikkinchi taronasi – qashqarcha.

Nasrullo IV, uchinchi taronasi.

Nasrullo V, to'rtinchi taronasi – ufor.

T.Alimatov ijrosidagi Nasrullo I, II va V qismlar asosida R.Qosimov rubob cholg'usiga moslashtirib notaga olgan.

**Chorgoh I, II** – Toshkent-Farg'ona maqom ashulalaridan. Chorgohlar asosan V qismdan iborat bo'lgan turkum asar bo'lib, Yunus Rajabiy tomonidan "**Chorgoh V**" asosida VI qismi bastalangan. U "Ufori Chorgoh" deb ham yuritiladi. Chorgohlarning katta ashula va sumay yo'llari ham bor. O'quv qo'llanmadan o'rin olgan namunasini T.Alimatov ijro uslubiga tayangan holda sozanda Abror Zufarov talqinida R.Qosimov rubob cholg'usiga moslashtirib notaga olgan.

**Nasri Segoh** – Toshkent-Farg'ona vohasiga mansub cholg'u kuylaridan biri. Nasri Segoh bilan birga "Segoh", "Ufori Segoh", "Mushkiloti Segoh", "Ufori mushkiloti Segoh" kabi namunalar mavjud. Ushbu kuylar "O'zbek xalq muzikasi" (I jild) kitobiga kiritilgan. Mazkur o'quv qo'llanmadagi namunasi boshqa yozuvlardan bir oz farq qiladi. Kuyini T.Alimatov ijro uslubiga tayangan holda sozanda A.Zufarov talqinida R.Qosimov rubob cholg'usiga moslashtirib notaga olgan.

**Navo** – Mungli kuy, ohang ma'nolarini anglatadi. Shashmaqom turkumidagi uchinchi maqomning nomi. Mazkur to'plamda Navoning Farg'ona-Toshkent uslubiga taalluqli mashhur sumay yo'li berildi. Shu bois ham bu namuna "Sumay Navosi" deb yuritiladi.

Ushbu sumay yo'li bir necha yillardan beri turli musiqiy cholg'ularda o'zgacha yangramoqda. G'ijjak, qo'shnay, sato, tanbur, naylardagi ijrolari shular jumlasidandir. Qashqar rubobida ham mohir sozandalarimiz bir qator sumay yo'llarini mahorat bilan ijro etishga intilganlar. "Mushkiloti Dugoh", "Nog'ora Bayot", "Sumay Navosi", "Sumay Dashtnavosi" singari kuylar bunga misol bo'la oladi.

Kuyning birinchi qismidagi fermato (♯) belgilarining qo'yilishi ijroni erkin talqinidan dalolat beradi. To'plamda professor S.M.Taxalov notaga olgan va rubobga moslashtirgan varianti berildi.


**Muxammasi Nasrulloi** – «Buzruk» maqomi cholg'u bo'limining beshinchi kuyi.

**Saqili Sulton** – «Buzruk» maqomidan.

**Tasnifi Rost** – «Rost» maqomi cholg'u bo'limining birinchi kuyi bo'lib, oldingilaridan farq qiladi.

**Tasnifi Navo** – Navo maqomi cholg'u (mushkilot) bo'limining boshlang'ich qismi. Shashmaqom turkumidagi dastlabki kuylar Tasnifi kuylaridan iborat. Mazkur atamaning ma'nosi ijodiy, yaratilgan, tasniflangan asar demakdir.

Navo maqomining tovushqatori asosan quyidagichadir:



Biz rubob imkoniyatlarini hisobga olib, unga xos bo'lgan pardadan ijro etishni tavsiya qilamiz. Shu tufayli kuyini qashqar rubobiga moslab yozishga harakat qildik. Yozuvda aks etgan barcha bezak va zarblarga ijro jarayonida amal qilinsa maqsadga muvofiqdir.

**Tarje'i Navo** – Navo maqomining cholg'u bo'limidagi Tasnifi Navodan keyingi ikkinchi qismi. Tarje' nomli kuylar Rost maqomidan tashqari Shashmaqom turkumining barcha maqomlari (Buzruk, Navo, Segoh, Iroq)da mavjuddir. Tarje'ining ma'nosi – qaytarish, takrorlash, naqarat kabi mazmunlarni anglatadi. Tarje'i Navo ijrochilikda ko'proq ommalashgan bo'lib, uning asosida bastakorlarimiz tomonidan Tarje'i Navo Uforisini ham ishlangan va raqqosalarimizning doimiy mumtoz sahna asariga aylangan. Tarje'i Navo Tasnifi Navoga qaraganda bir oz tezroq sur'atda ijro etiladi.

**Garduni Navo** – Navo maqomining cholg'u bo'limidagi uchinchi qismi. Shashmaqomda (Iroqdan tashqari) Buzruk, Rost, Navo, Dugoh va Segoh maqomlarida mavjud bo'lib, Gardun atamasining lug'aviy ma'nosi osmon gardishi, taqdir, qismat bo'lib, maqomlarda esa ma'lum doira usulini anglatadi. Bu kuy o'ziga xos va murakkab ritmik-usul tuzilishi bilan ajralib turadi. Unga o'zaro almashinib turuvchi ikki va uch hissali o'lehov birliklari ( $^2G^4$ ,  $^3G^4$ ,  $^3G^4$ ) xosdir. Kuy jumllarining ritmik xususiyati bevosita ana shu o'lehovlar orqali namoyon bo'ladi. Bu asarni ijro etishda shartli belgilar muhim ahamiyatga ega.

**Nag'mai orazi Navo** – Navo maqomining cholg'u bo'limidagi to'rtinchi qismi. Nag'mai Orazi Navo birgina Navo maqomida uchraydi. "Nag'ma" – musiqiy tovush, ton, ba'zan esa musiqa asarlarini ham bildiradi. Nag'mai Orazi Navoda Tarje'i Navoning bir necha kuy jumllari bor. Ushbu namunalarining xona va bozg'o'ylarini qaytariqsiz ijro etish mumkin.

**Tasnifi Dugoh** – Dugoh maqomining cholg'u bo'limidagi boshlang'ich qismi.

**Tarje'i Dugoh** – Tasnifi Dugohdan keyin keladigan kuy qismi. U Tasnifi Dugohga nisbatan o'ziga tezroq ijro qilinadi.

**Garduni Dugoh** – Dugoh maqomining cholg'u bo'limidagi Tarje'i Dugohdan keyingi uchinchi qismi. Shashmaqomdagi ma'lum Gardun nomli kuyilar orasida Garduni Dugoh eng kichik hajmga ega.

Boshqa mavjud nota yozuvlariga nisbatan ushbu yozuv qayta ishlaganligi bilan farq qiladi.

**Samoi Dugoh** – mazkur namunani Yunus Rajabiy notaga olgan (SHashmaqom. IV jild) Dugoh maqomining mushkilot qismidagidan farq qiladi. T.Alimatov ijrosidan R.Qosimov rubobga moslashtirib notaga olgan.

**Mushkiloti Dugoh** – Farg'ona-Toshkent cholg'u yo'llaridan hisoblanadi. Yakkalari va ansambl ijrolarida keng ommalashgan. Nota yozuvidagi aksi S.M.Taxalov tomonidan rubobga moslashtirilgan.

Mushkiloti Dugoh turkumining tarkibiy qismlari bo'lgan, Mushkiloti Dugoh Talqinchi, Mushkiloti Dugoh Uforisi ham Farg'ona-Toshkent uslubidagi asarlardir.

**Mushkiloti Dugoh talqinchi** – Farg'ona-Toshkent cholg'u yo'llaridan bo'lib, bu kuydan so'ng uning Uforisi ijro etiladi.

**Hafifi Segoh** – Segoh maqomining cholg'u bo'limidagi uchinchi kuy hisoblanadi. Hafif faqat Segoh maqomida mavjud bo'lib, u engil doira usullaridan birining nomini anglatadi. Mazkur asarda Tasnifi Segoh va Tarje'i Segohni bir necha kuy jumalari musharak uchraydi.

**Garduni Segoh** – Segoh maqomining cholg'u bo'limidagi to'rtinchi kuy hisoblanadi. Qashqar rubobiga moslashtirilgan ushbu kuyning xona-bozgo'ylar nisbat tartibi oldingi nashrlardagi yozuvlardan bir oz farq qiladi.

## Jonon

M.Mirzayev musiqasi,  
Rubobga moslashtiruvchi R.Qosimov

The musical score for 'Jonon' is written in 2/4 time and consists of ten staves. The melody is primarily in the treble clef, with some bass clef accompaniment. Dynamics include piano (p), mezzo-forte (mf), and forte (f). Articulations such as accents and slurs are used throughout. The piece features a mix of eighth and sixteenth notes, with some triplet patterns. The score concludes with a final cadence.



Shodlik

M. Mirzayev musiqasi,  
rubobga moslashtiruvchi  
R. Qosimov

# Dilbar

M. Mirzayev musiqasi,  
rubobga moslashtiruvchi  
R. Qosimov

O'rtacha tezlikda

Musical score for 'Dilbar' in 2/4 time, key of D major. The score consists of ten staves of music. It features various rhythmic patterns, including eighth and sixteenth notes, and rests. Dynamics markings include *mf* and *f*. There are also some slurs and accents throughout the piece.

